

**BADIIY ADABIYOT MADANIY QARSHILIK SIFATIDA: FILIP ROTNING “THE GHOST WRITER” ASARIDA MUALLIFLIK KONSEPSIYASI TALQINI****Ganieva Orzigul Khayriddinovna,**

Associate professor, DSc, Bukhara State University

E-mail: [ganievaorzigul494@gmail.com](mailto:ganievaorzigul494@gmail.com)**Zakiryaeva Malika Azizovna,**

MA student, Bukhara State University

E-mail: [zakirayevamalika@gmail.com](mailto:zakirayevamalika@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Filip Rotning “The Ghost Writer” asari misolida badiiy adabiyotning madaniy va ijtimoiy to‘siqlarga nisbatan qarshilik ko‘rsatish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida mualliflik konsepsiyasi, ya‘ni yozuvchining jamiyat, oila va tarix oldidagi mas‘uliyati hamda uning erkinlik uchun kurashi turadi. Asar qahramoni Neytan Zukerman timsolida yosh yozuvchining an‘anaviy qarashlar tazyiqidan qutulib, o‘z ijodiy yo‘lini topish jarayoni tahlil qilindi. Filip Rot adabiyotni shunchaki bayon vositasi emas, balki shaxsning o‘zligini himoya qilish va madaniy stereotiplarga qarshi turish quroli sifatida talqin qiladi. Tahlil davomida yozuvchining haqiqatni tasvirlashda ramziy obrazlardan qanday foydalangani yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** badiiy adabiyot, madaniy qarshilik, mualliflik konsepsiyasi, Filip Rot, ijodiy erkinlik, identifikatsiya, jamiyat va yozuvchi.

**Аннотация.** В данной статье на примере произведения Филипа Рота "Писатель-призрак" анализируются методы сопротивления художественной литературы культурным и социальным барьерам. В центре исследования авторская концепция, то есть ответственность писателя перед обществом, семьей и историей, а также его борьба за свободу. В образе героя произведения Нейтана Цукермана проанализирован процесс освобождения молодого писателя от давления традиционных взглядов и нахождения своего творческого пути. Филип Рот интерпретирует литературу не просто как средство повествования, а как инструмент защиты личности и противодействия культурным стереотипам. В ходе анализа освещается, как писатель использовал символические образы для описания действительности.

**Ключевые слова:** художественная литература, культурное сопротивление, авторская концепция, Филип Рот, творческая свобода, идентичность, общество и писатель.

**Abstract.** This article analyzes the ways fiction resists cultural and social barriers, using Philip Roth's work "The Ghost Writer" as an example. At the center of the research is the author's concept, that is, the writer's responsibility to society, family, and history, as well as his struggle for freedom. Through the protagonist Nathan Zuckerman, the young writer's process of freeing himself from the pressure of traditional views and finding his creative path was analyzed. Philip Roth interprets literature not merely as a means of expression, but as a tool for defending one's identity and countering cultural stereotypes. During the analysis, it is highlighted how the writer used symbolic images to depict reality.

**Keywords:** fiction, cultural resistance, author's concept, Philip Roth, creative freedom, identity, society and writer.

**Kirish.** Adabiyot har doim hayotni shunchaki tasvirlashdan ko‘ra ko‘proq vazifani bajargan. Ko‘p hollarda badiiy matn jamiyatda mavjud bo‘lgan qat‘iy qoidalar yoki madaniy bosimlarga qarshi chiqish quroli bo‘lib xizmat qiladi. Filip Rotning “The Ghost Writer” asari ham ana shunday qarshilik ruhida yozilgan. Ushbu asar yosh yozuvchining o‘z yo‘lini topishi, ustozlar tanlovi va o‘tmish bilan hisoblashishi haqida hikoya qiladi.

Kitobda yozuvchi bo'lish nafaqat matn yaratish, balki atrofda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish ekanligi ko'rsatiladi.

Yozuvchi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar har doim murakkab bo'lgan. Ayniqsa, Filip Rot ijodida mualliflik masalasi markaziy o'rin tutadi. Neytan Zukerman obrazi yordamida yosh ijodkorning oilaviy an'analar va madaniy stereotiplar qafasidan chiqishga urinishi tasvirlangan. Bu yerda adabiyot madaniy qarshilik sifatida namoyon bo'ladi, chunki qahramon o'z haqiqatini aytish uchun yaqinlari va jamiyat bilan ziddiyatga kirishishga majbur bo'ladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Filip Rot ijodi va uning "The Ghost Writer" asari ko'plab adabiyotshunoslar tomonidan tahlil qilingan. Stefano Bartolotta o'z ishida badiiy to'qima va haqiqat o'rtasidagi chegaralarni o'rganadi. Tadqiqotchi Rot asarlarida yozuvchi obrazi shunchaki voqelikni bayon qilmay, balki uni qayta qurish orqali madaniy bosimlarga javob berishini ko'rsatadi. Bartolottaning fikricha, Sukerman obrazi yozuvchining o'z o'tmishidan qutulish va yangi mualliflik "men"ini yaratish yo'lidagi intilishini ifodalaydi.

Barretts va Chinedu A. Ugoka o'z izlanishlarida garchi boshqa asarlarni ham qamrab olgan bo'lsalar-da, mafkuraviy o'zlikni anglash masalasiga alohida to'xtalib o'tishgan. Ular yozuvchining jamiyat tomonidan yuklangan axloqiy qoliplardan chiqish jarayonini tahlil qilishgan. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuvchi o'z matnida jamiyat kutgan "yaxshi qahramon" andozasini buzish orqali madaniy qarshiligini namoyon qilgan.

Zainab Shah va uning hamkasblari badiiy asarlardagi inqirozlar haqida yozishgan. Ularning tadqiqotida shaxsning o'z mavjudligi uchun kurashi va bu kurashning adabiyotdagi aksini ko'rish mumkin. Bu yondashuv "The Ghost Writer" asaridagi qahramonning yozuvchilikni tanlash orqali o'zini qutqarishga urinishini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda ko'zlangan natijalarga erishish uchun bir-birini to'ldiruvchi bir necha usullardan foydalanildi. Ishning asosi tahliliy va qiyosiy yondashuvlarga qurilgan bo'lib, bu Filip Rotning "The Ghost Writer" asaridagi mualliflik konsepsiyasini har tomonlama tushunish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, matnni chuqur o'rganish uchun germeneytik tahlil usuli qo'llandi. Bu usul yordamida asardagi ramzlar, qahramonlarning ichki kechinmalari va satrlar orasiga yashiringan ma'nolar ochib berildi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy metoddan ham foydalanildi. Bunda Filip Rot yashagan davr, o'sha vaqtdagi ijtimoiy-madaniy muhit va asarda tasvirlangan voqealar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Bu metod yozuvchining nima uchun aynan ma'lum bir mavzularda qarshilik ko'rsatganini tushunishga yordam berdi. Tadqiqot davomida barcha ma'lumotlar tizimli tahlil qilindi. Avval matn o'qib chiqildi, keyin muhim parchalar ajratib olindi va ular adabiy nazariyalar asosida tushunib yetildi. Yakunda barcha tahliliy xulosalar birlashtirilib, badiiy adabiyotning madaniy qarshilik sifatidagi o'rni haqidagi umumiy natijaga erishildi.

**Tahlil va muhokama.** Filip Rotning “The Ghost Writer” asarida mualliflik konsepsiyasi nafaqat ijodiy mahorat, balki yozuvchining shaxsiy intizomi, dunyoqarashi va hayot tarzining murakkab birlashmasi sifatida talqin qilinadi. Quyida asardan olingan parchalardan foydalanib, ushbu konsepsiyani tahlil qilamiz:

*“I’ve just found twenty-seven drafts of a single short story,” she told me. “Which story?” I asked eagerly. “ ‘Life Is Embarrassing.’ ” “To get it wrong,” said Lonoff, “so many times”.* Neytan Zukerman o‘z ustozini Lonoffning bitta hikoya ustida 27 marta qayta ishlaganini eshitib hayratga tushadi. Lonoff esa buni “shuncha marta xato qilish” deb ataydi. Bu yerda yozuvchi ilhomli daho emas, balki so‘zlar bilan tinimsiz kurashuvchi hunarmand sifatida ko‘rinadi. Rotning mualliflik konsepsiyasida “sabr” (patience) markaziy o‘rin tutadi. Lonoffning “Hayotda sabrsiz yashab bo‘lmaydi” degan gapi yozuvchilik faoliyatining asosiy formulasidir. Muallif - bu tayyor matnni ko‘chiruvchi emas, balki mukammallikka erishish uchun o‘z xatolarini qayta-qayta tuzatishga tayyor bo‘lgan shaxs ekanligi ta’kidlanadi.

*“No, for the moment, at least, Lonoff seemed really to have nothing to worry about from the outside world... with the cocktail hour at hand and another snowstorm arriving from Ultima Thule”.* Rot mualliflik konsepsiyasini geografik va psixologik yakkalanish (isolation) orqali yoritadi. Haqiqiy yozuvchi bo‘lish uchun tashqi dunyodan, uning maishiy tashvishlaridan uzoqlashish kerak. Lonoffning uyi muallif uchun “erkinlik hududi”dir. Bu makon unga 27-chi variantni yozish uchun zarur bo‘lgan sukunatni beradi. Bu yerda mualliflik - bu jamiyatning “sen o‘z hayotingni o‘zgartirishing kerak” degan talablariga qarshi turish va faqat ijodiy haqiqatga xizmat qilishdir.

*“Yes, be careful,” I called to her, in the guise of Mr. Zuckerman the short-story writer. “It’s slippery, it’s deceptive”.* Neytan Emi Bellet bilan muloqot qilganda o‘zini shunchaki yigit emas, balki “hikoyanavis janob Sukerman” qiyofasida (in the guise) tutishga harakat qiladi. U o‘zining haqiqiy his-tuyg‘ularini muallif degan status orqali himoya qiladi. Bu yerda mualliflik konsepsiyasining shaxsiy va professional ziddiyati namoyon bo‘ladi. Neytan uchun yozuvchi nomi - bu uning jamiyatdagi niqobi. U o‘zining uyatchanligi va bolalarcha ikkilanishlarini yashirish uchun yozuvchi obraziga kiradi. Biroq, Lonoff bilan suhbatda u bu niqobning og‘irligini his qiladi. Mualliflik - bu ham g‘urur, ham cheklovdur. Neytan uchun muallif bo‘lish nafaqat kitob yozish, balki o‘z hayotini shu nomga moslashtirish jarayonidir.

*“Ordinary human pleasures have nothing to do with it. Ordinary human pleasures be damned. The young man wants to be an artist”.* Lonoffning rafiqasi Xoup Neytanni maqtovlardan zavqlanishga undaydi, ammo Lonoff buni keskin rad etadi. Uning fikricha, san’atkor (artist) bo‘lishni xohlagan odam “oddiy insoniy lazzatlar”dan (olqishlar, maqtovlar) voz kechishi kerak. Bu parchada mualliflik konsepsiyasi “asketizm” (tiyilish) sifatida talqin qilinadi. Lonoff uchun yozuvchi bo‘lish - bu o‘zini dunyoviy quvonchlardan

mahrum qilish, o‘z ehtiyojlarini cheklashdir. U Neytanni ogohlantiradi: agar sen haqiqiy san’atkor bo‘lmoqchi bo‘lsang, maqtovlarga berilma. Bu tushuncha mualliflikni bir turdagi “ma’naviy qurbonlik” deb biladi. Yozuvchi jamiyat ichida emas, balki uning ustida yoki undan tashqarida bo‘lishi kerak.

*“We talked about literature and I was in heaven also in a sweat from the spotlight he was giving me to bask in. ... Zuckerman, with Lonoff, discussing Kafka: I couldn’t quite get it, let alone get over it”.* Neytan o‘z ustozini bilan adabiyot (masalan, Kafka) haqida suhbatlashar ekan, o‘zini ham baxtli, ham haddan tashqari hayajonlangan his qiladi. U Lonoffning e’tiborini qozonish uchun bor intellektini ishga soladi. Mualliflik konsepsiyasi bu yerda “traditsiya” (an’ana) sifatida talqin qilinadi. Neytan uchun muallif bo‘lish - bu buyuk nomlar (Kafka, Lonoff) qatoriga qo‘shilishdir. U uchun adabiy suhbat - bu diniy marosim kabi muqaddasdir. Biroq, bu “Jannat”ning orqasida Lonoffning “shafqatsiz ustaligi” (pitiless new master) turadi. Mualliflik - bu nafaqat ijod qilish, balki buyuklar oldida imtihon topshirish va ularga munosib bo‘lish uchun o‘z umrini bag‘ishlashdir.

**Xulosa.** Filip Rotning “The Ghost Writer” asarida mualliflik konsepsiyasi yozuvchining mutloq erkinligi va shaxsiy daxlsizligi ustiga qurilgani aniqlandi. Asar qahramoni Neytan Sukerman uchun muallif bo‘lish – bu nafaqat kitob yozish, balki oila va jamiyat tomonidan yuklangan ma’naviy majburiyatlardan voz kechish jarayonidir. Neytan Sukermanning Emi Belle’ni Anna Frank deb tasavvur qilishi badiiy to‘qima yordamida tarixiy fojialarga va madaniy tazyiqlarga qarshilik ko‘rsatish usuli ekanligi aniqlandi. Muallif badiiy tasavvur orqali tarixni qayta yozish va shu orqali o‘zining ijodiy legitimligini (haqligini) isbotlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barretts, Isaac and Chinedu A. Ugoka. “Variation of Ideological Self-Consciousness in Isaac Asimov’s I, Robot.” ResearchGate, 2022.- 15 p.
2. Bartolotta, Stefano. “Thought Experiments, Literary Fiction, and Science Fiction: The Example of Isaac Asimov’s Robot Cycle.” Poetics Today, Duke University Press, 2024.- 24 p.
3. Dyke, Andrew. Gunn’s Worldview of Science Fiction and the Robot Novels of Isaac Asimov: A Critique. ProQuest, 1999.- 184 p.
4. Shah, Zainab, Mariam Ayesha, Mariam Asi and Madiha Ilyas. “Artificial Intelligence as a Cause of Existential Crisis in Isaac Asimov’s Short Stories.” Journal of Linguistics & Literature, AIRSD, 2024.- 20 p.
5. Ganieva, Orzigul Khayriddinovna. "Depiction Of Relations Between A Person And Society In American Realistic Literature." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.8 (2020): 215-220.
6. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul, and Turayeva Dilorom Rustamjonovna. "Description of Perseverance in Eudora Welty’s Short Story “A Worn Path”." Miasto Przyszłości, 42, 722–725." 2023.
7. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul. "ANTHROPOCENTRIC APPROACH IN CONTEMPORARY AMERICAN AND UZBEK NOVEL WRITING." International Journal Of Literature And Languages 4.12 (2024): 55-59.
8. Roth, Philip. The Ghost Writer. Farrar, Straus and Giroux, 1979.- 180 p.